



**TALABALAR KOGNITIV FAOLIYATIDA POZITIV
KAYFIYATNING TUTGAN O'RNI**

Raxmatova Dilfuza Jora qizi

QarDU, 13.00.08 tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu tezis talabalarda kognitiv faoliyatga nisbatan pozitiv kayfiyatni hosil qilish - pedagogik muammo sifatida ekanligiga bag'ishlangan. Talabarda umuman kognitiv faoliyat, balki oddiygina samarali o'qitish jarayonini tashkil etish uchun ham o'rganuvchi shaxslarning ruhiyati bilan ishlashimiz, ularning ichki kechinmalariga quloq solishimiz kerak. Tadqiqot davomida jamiyat rivojlanishining ushbu bosqichida oliy ta'lim oldida yangi vazifalar turganligi, ularning yechimi talaba shaxsiga ta'sir qilishni tashkil etishga yangi yondashuv bilan bog'liq bo'lib, bu alohida o'qituvchilarning ham, butun universitet ta'lim tizimining ham diqqat markazida bo'lishi kerakligi, pozitivlik tushunchasining qamrovi hamda pozitiv kayfiyatning tutgan o'rni haqida o'rganildi. Shuningdek, bir qancha yozuvchi va olimlarning tavsiyalari ko'rib chiqildi. Ushbu tezisdan keltirilgan fikrlar va tavsiyalar talabalar kognitiv faoliyati davomida pozitiv kayfiyatni hosil qilishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv faoliyat, pozitivlik, neopozitivizm, kayfiyat*

Аннотация: *Данная диссертация посвящена тому, что формирование положительного настроения у студентов на познавательную деятельность является педагогической проблемой. Для того чтобы организовать не только познавательную деятельность у студентов в целом, но и просто эффективный процесс обучения, нам необходимо работать с психикой обучающихся, прислушиваться к их внутренним переживаниям. В ходе исследования было выявлено, что на данном этапе общественного развития перед высшим образованием встают новые задачи, решение которых связано с новым подходом к организации воздействия на личность студента, что должно быть в центре внимания как отдельных преподавателей, так и всей системы университетского образования, изучены объем понятия позитивности и роль позитивного настроения. Также рассмотрены рекомендации ряда писателей и ученых. Представленные в данной диссертации идеи и рекомендации направлены на создание положительного настроения во время познавательной деятельности студентов.*

Ключевые слова: *познавательная активность, позитивность, неопозитивизм, настрой*



Abstract: *This thesis is devoted to the fact that the formation of a positive mood in students towards cognitive activity is a pedagogical problem. In order to organize not only cognitive activity in students in general, but also simply an effective learning process, we need to work with the psyche of learning individuals, listen to their inner experiences. In the course of the study, it was found that at this stage of social development, higher education faces new tasks, the solution of which is associated with a new approach to organizing influence on the student's personality, which should be the focus of attention of both individual teachers and the entire university education system, the scope of the concept of positivity and the role of positive mood were studied. The recommendations of a number of writers and scientists were also considered. The ideas and recommendations presented in this thesis are aimed at creating a positive mood during students' cognitive activity.*

Keywords: *cognitive activity, positivity, neopositivism, mood*

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimiga yuksak darajada e'tibor qaratilayotganligi oliy ta'lim oldida muhim vazifalar turganligining yaqqol dalilidir. Mavjud muammolarni bartaraf qilish hamda joriy vazifalarning bajarilishini ta'minlash talaba shaxsiga ta'sirni tashkil etishda yangi yondashuv bilan bevosita bog'liq. Bu o'qituvchilarning diqqat markazida bo'lishi kerak bo'lgan ustuvor vazifa desak mubolag'a bo'lmaydi.

Talabalarga nafaqat ma'lum miqdordagi bilimlarni berish, balki bir vaqtning o'zida ularning kognitiv va kasbiy faoliyatini, o'quv materiallarini o'zlashtirish usullarini, talabalarning bilim qobiliyatini va ijodiy salohiyatini rivojlantirish kerak.

Faol, bilimli, ishtiyoqi yuqori talabagina raqobatbardosh bo'lib, hayotda munosib o'rin egallaydi. Bu ko'p jihatdan universitetdagi o'quv jarayonining xususiyatlari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, professor-o'qituvchilarning ish sifati bilan ham belgilanadi. Ta'lim beruvchi shaxs ta'lim oluvchiga nisbatan qanchalik adekvat tarzda yondasha olsagina samarali natijalar ko'zga tashlanadi. O'qituvchi-professor talabada kognitiv faoliyatga nisbatan munosabat hosil qila olishi lozim. Abramenkova VV, Bozhovich LI, Ganelina SH, Zeiliger EO, Zyubin LM, Ivanov GP, Leontiev AN, Morozova NG, Slavina LS va boshqalar kognitiv faoliyatiga munosabat bilan bog'liq muammolarni hal qilishda muhim hissa qo'shdilar. Ushbu mualliflarning asarlari shuni ko'rsatadiki, o'rganishning muvaffaqiyati va unga bo'lgan qiziqish o'rganishning mazmunliligi bilan bog'liq bo'lib, talabalarning kognitiv faoliyatga munosabati tizimining bir qismidir.

Kognitiv faoliyatga munosabat talabaning o'ziga, uning bilimlarni qanchalik qat'iyatli o'zlashtirishiga, uning psixologik imkoniyatlariga, faoliyat profiliga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonining samaradorligini ta'minlaydigan ehtiyoj-motivatsion sohaning shakllanishiga bog'liq. Bu jarayonda pozitivlik alohida o'rin tutadi.

Ko'pgina holatlarda pozitivlik tushunchasini juda tor ma'noda talqin qilinadi. Ya'ni, pozitivlik – xursandchilik, baxt, quvonch yoki emotsiya, hissiyot. Vaholanki, “pozitiv so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib “musbat”, “ijobiy” ma'nolarini anglatadi. Bu tushunchaga



berilgan ta'riflardagi fikrlarni umumlashtirgan holda pozitivlik inson his-tuyg'ularining tashqi qiyofadagi aksi va ijtimoiy faoliyatdagi ko'rinishi deb ta'riflashimiz mumkin. Pozitiv va pozitivlik tushunchalari pozitivizm ko'rinishida falsafa fanining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida paydo bo'ladi va taraqqiy etib boshlaydi. Pozitivizm-G'arb falsafasida juda keng tarqalgan yo'nalish bo'lib bu yo'nalish XIX asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan asos solingan. Pozitivlik tushunchasini quyidagi ko'rinishlarda ko'rishimiz va tahlil qilishimiz mumkin.

- yolg'onchilikka qarshi haqqoniylik;
- keraksizlikka qarshi foydalilik;
- shubhalilikka qarshi ishonchlilik;
- noaniqlikka, mavhumlikka qarshi aniqlilik;
- salbiylikka qarshi ijobiylik;
- buzg'unchilikka qarshi tuzuvchanlik ma'nolarida ishlatiladi.

Pozitivizmga ko'ra, barcha chinakam pozitiv bilimlar maxsus fanlar yig'indisi natijasidir, pozitivizm tabiiy va ijtimoiy fanlar metodologiyasiga, ayniqsa, XIX asrning 2-yarmida dunyo sivilizatsiyasiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Pozitivizmning hozirgi shakli neopozitivizmdir.¹ Bundan tashqari, ayrim adabiyotlarda pozitivlik hissiyot va emotsiyaning yig'indisi sifatida ham qoraladi.

Ko'rinib turibdiki, pozitivlik tushunchasining qamrov darajasi keng va bu tushuncha tadqiqotimizda o'z-o'zidan kayfiyat tushunchasi bn yonm-yon keladi. "Kayfiyat zaif yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan va odatda, ancha barqaror emotsional holatdir. Odamning barcha psixik jarayonlarida va faoliyatida kayfiyat katta rol o'ynaydi. Tasavvurlar va fikrlarning o'tishidagi tezlikka, shuningdek, tasavvur va fikrlarning mazmuniga hamda yo'nalishiga kayfiyat ta'sir qiladi."²

Bu ikki psixologik tushuncha esa birlashib pedagogik jarayon hisoblanmish kognitiv faoliyatga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi va tadqiqotimizning ham asosini tashkil etadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Talabarda umuman kognitiv faoliyat, balki oddiygina samarali o'qitish jarayonini tashkil etish uchun ham o'rganuvchi shaxslarning ruhiyati bilan ishlashimiz, ularning ichki kechinmalariga quloq solishimiz kerak bo'lib qoldi. Shu boisdan, ularda darslarga nisbatan faollikni oshirish maqsadida pozitivlikni, baxt garmonini hosil qilish uchun amerikalik o'qituvchi, yozuvchi va notiq Timoti Uoker ham o'zining "Finlandiya ta'lim mo'jizasi" nomli asarida shunday deydi: "Shunday bir tasavvur paydo bo'ladiki, hozir butun dunyoda quvonchni ta'limda ustuvor vazifaga aylantirishga dav'at qiluvchi bir harakat qiluvchi kuch to'playotgandek tuyuladi. Pensilvaniya universiteti tadqiqotchisi Alexandro Adler ijobiy psixologiyadan dissertatsiya yozganida Butandagi ta'lim dargohlarida 8 ming nafar talaba ishtirokida tadqiqot o'tkazgan. Eksperimentning mazmuni quyidagicha bo'lgan: bir toifa guruhlarda zamonaviylashtirilgan rejadan foydalanilgan va unda baxtli bo'la olish qobiliyatiga urg'u berilgan, boshqalarida esa oddiy an'anaviy tarbiya nazarda tutilgan.



Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "baxt o'quv dasturi" tufayli talabalarning o'z-o'zini ishontirishi ham, standartlashtirilgan test natijalari ham sezilarli darajada yaxshilangan.

Gohida tirishqoq ota-onalarning noma'qul talablariga ergashishni xohlaymiz yoki bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini tan olmasdan, ularni tanaffuslarsiz ishlashga, oldinga intilishga majburlagimiz keladi. Oxiri ko'rinmas testlarga asoslangan hisobotlar zamonida qolib ketyabmiz."ⁱ

Ko'rinib turibdiki, biz oddiy yoki keyingi o'rinlarga qo'yayotganimiz pozitivlik, pozitiv kayfiyat aslida pedagogik jarayonlarimizning asosini tashkil etmoqda va pedagogik muammo darajasiga yetib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T.- 2010
2. M.N.Mullaboyeva, D.G'.Muhammedova, A.I.Rasulova "Umumiy psixologiya". Darslik. "Mumtoz so'z" nashriyoti. T.-2018
3. S.Ashirova, D.Kenjayeveva "Pozitivlik tushunchasining nazariy asoslari va inson faoliyatida namoyon bo'lishi". Ilmiy maqola. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations jurnali. Issue – 3 № 2 (2022) / ISSN 2181-1415 <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
4. Timoti Uoker "Finlandiya ta'lim mo'jizasi". "Global books" nashriyoti. T.-2023
5. Данилова Евгения Викторовна. Формирование позитивного отношения студентов к учебно-познавательной деятельности. Диссертации. Ставрополь, 2017